

AN'ANAVIY XONANDALIKDA FARG'ONA-TOSHKENT MAQOM YO'LLARIDAN BAYOTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Islomjon Niyozov

R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi

"An'anaviy ijrochilik" bo'limi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12176643>

Kirish:

San'at inson qalbini yumshatib, uni jaholat, razolat, yovuzlik kabi inson uchun nomunosib xislatlardan tiyilishga, bunday g'ayriinsoniy, salbiy xislatlarga nisbatan murosasiz bo'lishga undaydi. U inson qalbida odamiylik, ezgulik, oqibatlilik, boshqalarga g'amxo'rlik, saxovatpeshalik, odillik kabi inson uchun ijobiy bo'lgan xislatlar uyg'otadi. San'at kishi qalb ko'zini ochib, hayot rangba-rangligidan bahramand bo'lishiga zamin yaratadi. San'atning turlari ko'p va ularning barchasi inson qon-qoniga singib, dunyoqarashini o'zgartira olishga qodirdir. Shunday san'at turlaridan har birimizga juda yaqini musiqa va she'riyat san'ati haqida, shuningdek musiqaga ixtisoslashtirilgan maktablarda milliy musiqa ijrochiligiga alohida e'tibor qaratilayotgani to'g'risida baholi qudrat so'z yuritimiz.

Maqomlarning yirik yo'nalishi Farg'ona va Toshkent vohalari bilan bog'liq. Bu joylarda qaror topgan klassik musiqa tizimi umumlashtirilib "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" deb yuritiladi. 20-30 yillarda ustozlar mazkur tizimga nisbatan "Shashmaqom", "Olti yarim maqom"ga o'xshatib, "Chormaqom" (ya'ni to'rt maqom) atamasini ham qo'llaganlar va uning tarkibida "Bayot", "Dugoh Husayniy", "Chorgoh" va "Gulyor-Shahnoz" nomlari bilan yuritiladigan birikmalarni tushunganlar. Farg'ona-Toshkent Chormaqomi, Shashmaqom va Xorazm maqomlaridan farqli o'laroq, qismlari bir-biriga vobasta qilingan turkum shaklida emas, balki umumiy nom ostida keladigan mustaqil kuy yo'llari tarzida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, ular "Dugoh I", "Dugoh II", "Dugoh III" yoki "Bayot I", "Bayot II", "Bayot III" kabi tartib sonlari bilan belgilanadi.

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining kelib chiqishi va tarkibiy xususiyatlari ilmiy jihatdan ham kam o'rganilgan. Ushbu masala yuzasidan I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" kitobining maxsus bobida ma'lumotlardan hisoblanadi. Unda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari maqomot tizimida o'z ichki qonun-qoidalari, nizom va belgilari bilan davom etib kelayotgan mustaqil an'ana ekanligi ochib berilgan.

Eng muhimi, I.Rajabov tadqiqotida Farg'ona-Toshkent maqomlarining tarixi va amaliy tamoyillaridagi Buxoro Shashmaqomi va Xorazm maqomlaridan farkli jihatlari ko'rsatilgan. Farg'ona-Toshkent maqomlarining tarixiy ildizlariga oid ishonchli yozma manbalarning tanqisligi hamda ijro etilib yurgan kuy va ashulalarning mukammal tanqidiy matnlarining deyarli yo'qligi mavzuni taxlil etishda jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Bu borada eng chigal masalalardan biri — Farg'ona-Toshkent klassik musiqasining mundarijasini tuzishdir. Gap shundaki, bu voha kuy va ashulalarining faqat ayrim qismigina sharafli maqom otlari bilan yuritiladi. Farg'ona-Toshkent yo'llarining belgili maqom yoki ularning shu'balariga ergashib keladigan qismlarga aynan o'xshaydigan joylari ko'p. Masalan, sozandalar orasida "Bayot II" nomi bilan yuritiladigan asar aslida Naqshi Bayotdir. Qizig'i shundaki, bu kuyda eski musiqa risolalarida "naqsh" shakliga xos deb ko'rsatilgan xususiyatlar o'z aksini topadi. Boshqacha aytganda, aslida naqsh shunchaki oddiy tarona emas, balki uning o'ziga xos murakkab bir ko'rinishidir.

Musiqaga ixtisoslashtirilgan maktablarda ham maqom ijro etishga alohida e'tibor qaratilgan bir davrda o'quvchilarga "Bayot"lar ijrosi maroqli va his etib ijro etishga qulay asarlardan hisoblanadi.

"Shashmaqom" yaratilgandan keyingi davrlarda Toshkent va Farg'ona vodiysida bir necha musiqa asarlari turkumlari yaratildi. Maqomlarning ma'lum variantlari yuzaga keldi bastakorlikda maqom yo'llarini turli doira usuliga tushirib, ularni melodik yoki ritmik variatsiyasini ishlash uchun imkoniyatlar keng bo'lganining natijasidir. Bunday maqom yo'lida ishlangan musiqa asarlari orasida kuy qiyofasi va tuzilish qonun-qoida xususiyati belgilari nuqtai nazaridan to'rt maqom turkumlariga alohida ajralib turadi. Bular: Bayot, Dugohi Husayniy, Chorgoh, Shahnozi Gulyordir. Ularning har biri olti va yettitagacha shahobchalarga ega hamda sonlar vositasi bilan bir-biridan ajratiladi. Masalan: Bayot I, II, III, IV, V; Chorgoh I, II, III, IV, V; Dugoh Husayniy I, II, III, IV, V, VI, VII. Eng xususiyatli tomoni shuki, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari "Shashmaqom" ashula bo'limining birinchi va ikkinchi qismiga kirgan sho'balari; Saraxbor, Nasr, Savt, Mo'g'ilcha kabi maqom sho'balaridagi tuzilish tartibida ishlangan, ya'ni ulardagi takt-ritm o'lchovi, ashula yo'lining xarakati saqlangan. Masalan: Bayot I, Dugoh Husayniy I, Chorgoh I, Saraxborlar tartibida ishlangan bo'lib, ularning takt-ritm o'lchovi 2/4 doira usuli, ularga aytiladigan g'azallar o'lchovi, ashula yo'lidagi kuy xarakatlari ham "Shashmaqom"da uchraydigan asarlarning o'zi.

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari "Shashmaqom" sho'balariga, ko'proq ashula jumllarining ichki kuy xarakatlari bilan emas, balki shu jumllarning yaxlit qiyofasi nuqtai nazaridan mos kelishi mumkin.

Masalan, Bayot nomi Navo maqomidagi Talqin, Nasr sho'balarida uchraydi va Talqini Bayot, Ufori Bayot deb ataladi. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridagi Bayot "Shashmaqom"dagi Bayot sho'balarining ma'lum varianti sifatida yuzaga kelgan. Bunda Bayot sho'balarining doira usuli Saraxbordagi kabi soddalashtirib olinib Bayot I deb atalgan.

Masalan, Nasri Bayot bilan Bayot I ni olib qaraylik. Ularning boshlanish jumllaridagi ikki xat ko'rinishi bir-biridan farq qiladi, lekin, Bayot I ning ikki xati ham Bayot sho'balarining variatsiyasidir. Bayot I da bu ashula bo'lagi variatsiya etilar ekan, muhim o'zgarishlarga uchraydi. Ularning kuy xarakatini qiyosiy ravishda kuzatilsa, asosiy ashula yo'li doira usulidan chiqib ketish xollari seziladi. Lekin Bayotning ruhiy ta'siri, jumllarning yaxlit ko'rinishidagi umumiy qiyofa ma'lum darajada saqlanib qoladi.

Bayot I ning uchinchi xatini taqqoslab ko'raylik. Bayot I avjida navo maqomining Bayot sho'balarida uchraydigan Namudi Bayot va Namudi Navoning ma'lum variantlari uchrashi fikrimizning yana bir dalilidir.

Bayotning II, III, IV, V sho'balarida ham Shashmaqom yo'llariga nisbatan bunday o'xshashlik mavjuddir. Bayot II ni Nasri Bayot taronalarining ma'lum melodik variatsiyasi deyish mumkin. Taronai Nasri Bayot doira usuli ham Bayot II da o'zgarmaydi. Uning ashula yo'llari, kuy jumllari, ayniqsa, Nasri Bayotning II taronasi majmuasiga o'xshaydi. Bayot II ning avj qismi Nasri Bayot boshlanishidagi jummalardan olib ishlangan va tarona doira usuliga solingan.

Bayot III Navodagi Bayot sho'balarining boshlanish ashula jumllarining beshinchi parda ya'ni kvintaga ko'tarib, ma'lum darajada o'zgartirib ishlangan shaklidir. Bayot III ni "Shashmaqom" sho'balariga taqqoslab ko'rib bu ashula yo'lini ishlashda Savti Ushshoqdan ham foydalanganligi bilinadi. Bunda Savti Ushshoq Bayot III pardasiga tushirilgan (tonalnost, tovush qatoriga).

Bayot IV-V, Bayot III yoki namudi Bayotning ritmik-melodik variatsiyasi sifatida ishlangan ashula yo'llaridandir.

Bayot V takt-ritm o'lchovi va doira usuli "Shashmaqom" Savt va Mo'g'ulcha tipidagi sho'balarning Qashqarcha shahobchalaridagi kabidir. Bayot IV esa Talqin doira usulida ijro etiladi. Shunday qilib Toshqent va Farg'ona maqom yo'llaridan bo'lgan Bayot shahobchalari Navo maqomidagi sho'balarning ma'lum variatsiyalari sifatida gavdalanadi. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan Chorgoh haqida xam shuni aytmoq mumkin.

Bayot, Chorgoh, Dugohi Husayniy asarlarini yaxlit holda olib, ularning tuzilishida doira usuli nuqtai nazaridan qaralsa, qandaydir bir (prinsip) tartib qonun-qoidaga asoslanganligini ko'rish mumkin. Shahnozi Gulyor shahobchalarining birinchi va ikkinchisidan tashqari barcha qolgan asarlarda bu tartib saqlangan. Uning oxiriga kiritilgan Ushshoq yo'li esa Shaxnozi Gulyorga tasodifiy kiritilgan, chunki u sarahbor uslubida ishlangan. Shahnozi Gulyor va uning shahobchalari tuzilish jixatidan Bayot, Chorgoh, Dugoh Husayniydan tubdan farq qilar ekan, bularni to'rt maqom sifatida alohida qilib, maqomlar guruhidan ajratib qarash to'g'ri bo'lmaydi. Ba'zi hofiz va musiqachilar Toshkent-Farg'onada mashhur bo'lgan bu maqom yo'llarini Chor maqom deb atab kelganlar, lekin, o'zining nom xususiyatlariga ega bo'lgan bu maqom yo'llarida ko'pgina chalkashliklar bor. Ular "Shashmaqom" sho'balari asosida yaratilgan bo'lsada, Chor maqom deb maxsus nom berish haqida aniq bir fikr aytish qiyin. Toshkent-Farg'ona maqomlarini "Shashmaqom" yo'llari va maqom sho'balari asosida yaratilgan variantlari qatoriga kiritish mumkin bo'lgan ashula yo'llari deb hisoblansa to'g'riroq bo'ladi. Agar Shahnozi Gulyor Chor maqomining boshqa yo'llaridan o'zining tuzilishi qoidalari jihatidan farq etar ekan, uni bu maqom yo'llariga kiritishni xo'jati yo'q. Shahnozi Gulyorga o'xshagan yuqorida zikr etilgan maqom yo'llariga mos kelmaydigan juda ko'p turkumli variantlar xalq orasida mashhurdir.

Bayotlar bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari ijrosi uchun o'zlashtirilishi jihatidan ayni muddao asar hisoblanib, o'quvchilarda maqom ijrochiligi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda ijobiy natija beradi.

Xulosa qilib aytganda Bayotlar ansambl va yakkaxon ijroda muammo to'g'dirmaydigan asar bo'lsa ham ustoz-shogird an'anasiga tayangan holda talqin etilishi maqsadga muvofiq yutuqlardandir. Kamchiliklar sifatida esa aytish mumkinki ansambllarda maqomlardan go'yo terib olinib popurri ko'rinishidagi ijrolar maqomlarimizning asl go'zalligidan chekintiradi. Kelgusida biz oldimizga qo'yilgan talab va imkoniyatlardan foydalanib maqomlarimizni o'z jozibasi bilan tadbiiq etishga harakat qilamiz.

Milliy merosimiz bo'lgan durdona asarlarimizni asrab avaylash, aslliligini saqlagan holda kelgusi avlodga bezavol yetkazishda biz ustozlarning muhim asosiy vazifa va burchimiz xisoblanadi.

References:

1. И.Ражабов. "Мақомлар", "Санъат" нашриёти, Тошкент-2006 .
2. "Шашмақом сабоқлари", мақола ва маърузалар тўплами, Тошкент-2005.
3. "Шашмақом" I-VI жилдлар. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент-1975.
4. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. –Т.: Ўқитувчи, 1994.- 320 б.

5. Иброҳимов О. ва б. Муסיқа: 4–синф учун дарслик.- Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 2003.- 110 б.
6. Иброҳимов О., Садиров Ж. Муסיқа: 7–синф учун дарслик. – Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 2001. – 244 б.

INNOVATIVE
ACADEMY